



UDK: 37.013.46

**Shoira SADIKOVA,**  
Katta o'qituvchi, O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston  
E-mail: [shoirasadikova45@gmail.com](mailto:shoirasadikova45@gmail.com)

ChDPU professori D.Ximmataliev taqrizi asosida

## PREPARING STUDENTS FOR PRACTICAL TEACHING IN UNIVERSITY EDUCATION

Annotation

This article examines the formation and development of university education in Uzbekistan, as well as trends and organizational and methodological aspects of preparation for teaching at universities. It also outlines the pedagogical competencies developed by students during their preparation for teaching, particularly through internships.

**Key words:** university education, pedagogical activity, preparation for pedagogical activity, pedagogical practice, pedagogical competence.

## ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ПРАКТИЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УНИВЕРСИТЕТСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования и развития университетского образования в Узбекистане, тенденции и организационно-методические аспекты подготовки к педагогической деятельности в университетах. Также изложены педагогические компетенции, формирующиеся у студентов в процессе подготовки к педагогической деятельности, в частности в педагогической практике.

**Ключевые слова:** университетское образование, педагогическая деятельность, подготовка к педагогической деятельности, педагогическая практика, педагогическая компетентность.

## UNIVERSITET TA'LIMIDA TALABALARNI AMALIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda universitet ta'limining shakllanishi va rivojlanishi hamda universitet ta'limida pedagogik faoliyatga tayyorlash tendensiyalari, pedagogik faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-metodik jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida, xususan pedagogik amaliyot orqali talabalarda shakllanadigan pedagogik kompetensiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** universitet ta'limi, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatga tayyorlash, pedagogik amaliyot, pedagogik kompetensiya.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida O'zbekiston milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingida O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari belgilangan [1].

Universitet oliy ta'lim tashkiloti hisoblanib, ta'lim, fan, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga (masalan, texnika, iqtisod, agrar, transport) ixtisoslashtirilgan, chuqurlashtirilgan ilmiy va fundamental bilimlarni berishga, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirishga qaratilgan ta'lim tashkiloti sanaladi.

Shuningdek, universitet ta'limining o'ziga xosligi quyidagilarda ko'rinadi:

universitet faoliyatida fundamental fanlar asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni universitetda fundamental fanlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatga ega bo'lgan, tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy maktablar mavjud;

universitet ta'lim markazi sifatida mintaqa, mamlakat va viloyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim omil, ya'ni davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini oldindan aniqlaydi;

universitet akademik mustaqil ta'lim tashkiloti sifatida mehnat bozorida ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ochishni belgilaydi;

universitet moliyaviy mustaqilligi doirasida to'lov-shartnoma qiymatini belgilaydi, o'z hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratishni, mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilarni shartnoma asosida jalb qilish kabi ishlar bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi;

universitet global muammolarni (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy) hal qiladigan, turli madaniyatlarning o'zaro hamkorligidagi milliy va madaniy markaz sanaladi.

**Mavzuga oid dabiyyotlar tahlili.** O'zbekistonda universitet ta'limining yuzaga kelishi va unda pedagogik faoliyatga tayyorlash xususida gapirganda, jadid ziyolilarining xizmatlarini ta'kidlab o'tish zarur. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida universitet ta'limi jadid ziyolilarining buyuk orzularidan bo'lib, millatni uyg'otish va qayta dunyoga qo'shish uchun zamonaviy universitet ta'limi zarur ekanligini o'zlari tashkil etgan gazetalarda eng dolzarb masala sifatida targ'ib qilib bordilar.

1918-yilning 12-mayida Munavvarqori Abdurashidxonov bosh bo'lgan Turkiston Musulmon xalq

dorilfununi (“dorilfunun” arabcha soʻz boʻlib, “fanlar uyi” degan maʼnoni anglatadi) ochiladi. Dorilfunun uch (quyi, oʻrta va oliy) bosqichdan iborat boʻlib, 5 yillik dorilmuallimni ham koʻzda tutardi. Oliy bosqich – dorilmuallimin, yaʼni oʻqituvchilar instituti kiradi. Oʻqituvchilarga talab kuchli edi, shuning uchun dorilmuallimning ilmiy-pedagogik jamoasi oʻsha davrdagi yetuk pedagog va dunyoviy ilmlarning bilimdonlaridan tashkil topadi [6].

1918-yilning sentabr oyiga kelib Turkiston Musulmon universiteti Turkiston Xalq universitetiga qoʻshib yuboriladi. Turkiston Xalq universiteti oʻz faoliyatida oʻquv-pedagogik faoliyatni takomillashtira borish bilan birga maʼlum muddat davomida oʻlkadagi xalq taʼlimining yagona oliy bosqichi va yirik ilmiy-pedagogik markazga aylandi [6].

1923-1960-yillarda Oʻrta Osiyo davlat universiteti va 1960-2000-yillarda Toshkent davlat universiteti, deb nomlangan davrlarda ham qoʻshni respublikalarga hamda Osiyo va Afrikaning koʻpgina davlatlariga turli sohalar bilan bir qatorda pedagogik sohaga ham malakali kadrlar tayyorlagan.

Bir asrdan koʻproq tarixga ega boʻlgan universitet mintaqamizdagi birinchi oliy oʻquv yurtlarini sifatida fan, taʼlim va boshqa turli sohalariga kadrlar tayyorladi. Ikkinchi universitet 1933-yilda Samarqandda, uchinchi universitet 1976-yilda Nukusda ochildi va respublikamizning taʼlim sohasiga ham pedagogik kadrlarni tayyorlab keldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida 1992-yil 28-fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada yangi oliy oʻquv yurtlarini tashkil qilish toʻgʻrisida” gi farmoniga koʻra, oliy taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy kadrlar tayyorlashni yaxshilash, shuningdek respublikaning barcha mintaqalarini pedagogik kadrlar bilan taʼminlash maqsadida yettita viloyat, jumladan Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo, Surhendaryo va Xorazm viloyatlaridagi pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi, shuningdek, Toshkent davlat chet tillari instituti hamda Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti negizida Oʻzbekiston davlat Jahon tillari universiteti tashkil qilinib, taʼlimning barcha bosqichlari uchun malakali chet tili oʻqituvchilari tayyorlana boshlandi [3].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik taʼlim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-4623-son qarorida “pedagogik kasbga qiziqishi yuqori boʻlgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish” vazifasi belgilangan [2].

Yuqorida keltirilgan davlat hujjatlaridagi vazifalarni amalga oshirish universitet talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmunini modernizatsiya qilishni va metodlariga innovatsiyalarni kiritishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Universitet taʼlimida bakalavriat taʼlim bosqichi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagogik sikldagi fanlardan olib boriladigan maʼruza, seminar, amaliy mashgʻulotlar, mustaqil taʼlim doirasida bajariladigan mustaqil ishlar bilan bir qatorda pedagogik amaliyot taʼlimning muhim bosqichi sifatida talabalarda pedagogik kompetentlikni shakllanishida muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Universitet taʼlimida (OʻzMU) pedagogik yoʻnalishdagi (Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi, Xorijiy til va adabiyoti) talabalarining pedagogik amaliyoti oʻquv reja asosan 2-kursdan “4+2” tartibida, shuningdek taʼlim yoʻnalishi talabalar 4-kursning 8 va 9-semestrlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus (akademik litseylarda) hamda professional taʼlim muassasalarida (kasb-hunar maktablarida, kollej va texnikumlarda) “pedagogik

amaliyot – kasbiy kompetentlik asosi” formulasi asosida tashkil qilinadi.

Rossiyalik pedagog-olim V.A.Slastenin “pedagogning kasbiy kompetentligi - kasbiy mahoratini tavsiflovchi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda nazariy va amaliy tayyorgarligini aks ettiradi, yaʼni amaliy tayyorgarlik pedagogik amaliyot jarayonida shakllanishini eʼtirof qiladi [4].

Pedagogik amaliyot – bu boʻlajak oʻqituvchilarni auditoriyada olgan nazariy bilimlari va boʻlajak mustaqil faoliyatini bogʻlaydigan, talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan taʼlim shakli, deb aytish mumkin.

Universitet (OʻzMU) talabalarining bir necha yillik pedagogik amaliyoti tahlili shuni koʻrsatadiki, talabalar pedagogik amaliyot davrida birkirtilgan sinf rahbarining yoki fan oʻqituvchisining ish uslubini pedagogik-psixologik tomonlarini tushunmasdan, shunchaki taqlid qilib bajarishadi, bu esa talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Demak, talabalarga nafaqat pedagogik amaliyotning mazmuni va vazifalarini tushuntirish, balki tashkil qilish va oʻtkazishdagi muammolarni hal qilish koʻnikmalarini shakllantirish lozim.

Pedagogik amaliyotning maqsadi – talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va boʻlajak oʻqituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat boʻlib, asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

talabalarda oʻqituvchilik kasbga qiziqishni va pedagogik faoliyatni egallash ehtiyojini oshirish;

talabalarni umumiy oʻrta maktab va akademik litseylardagi oʻquv-tarbiyaviy ishlar hamda ilgʻor pedagogik tajribalar bilan tanishtirish;

muayyan pedagogik vaziyatlarni hal qilishda nazariy bilimlarni qoʻllash koʻnikmasini shakllantirish;

pedagogik jarayonni yaxlit tashkil qilish va oʻtkazishga tayyorgarlikni shakllantirish;

fan oʻqituvchisi va sinf rahbari faoliyatining barcha yoʻnalishlarini oʻzlashtirishi;

talabalarda tahliliy, bashoratlovchi, loyihaviy, reflektiv va boshqa kasbiy pedagogik koʻnikmalarni takomillashtirish;

talabalarda pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvni rivojlantirish.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogik adabiyotlar va ilmiy kuzatishlar tahlili shuni koʻrsatadiki, pedagogik amaliyotni tashkil qilish va oʻtkazish hamda talabalarda pedagogik kompetentlikni shakllantirish uchun toʻrtta yondashuvga asoslanish, yaʼni tizimli, faoliyatli, kompetentli va integrativ yondashuvlarni amalga oshirish lozim [4].

Tizimli yondashuv deganda, pedagogik amaliyot bir butun tizim sifatida taʼlim muassasasi bilan tanishish, predmet oʻqituvchi vazifasini bajarish, oʻquvchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish, sinf rahbarining vazifalarini oʻrganish, ota-onalar bilan ishlash kabi alohida elementlardan tashkil topishi tushuniladi.

Faoliyatli yondashuv, pedagogik amaliyot davrida talabalarni turli xil pedagogik faoliyatga, yaʼni darslarga kirish va kuzatish, darsning reja-konspektini tuzish, sinov darslarini oʻtkazish, sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish, yaʼni universitet auditoriyasida olgan bilim, koʻnikma va malakalarini tajriba orttirish maqsadida pedagogik faoliyatda qoʻllash, degani.

Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik amaliyot jarayonida talabaning kelajakda pedagogik faoliyati uchun zarur boʻlgan kompetensiyalar yigʻindisini oʻzlashtirishi kerakligini nazarda tutadi. Bular ijtimoiy-pedagogik, taʼlimiy, tadqiqotchilik, kommunikativ, informatsion-texnologik va maʼnaviy-madaniy kompetensiyalar.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarda pedagogik ko'nikma va malakalarni shakllanishida yana bir muhim yondashuv, ya'ni integrativ yondashuvni amalga oshirish hisoblanadi. Pedagogik ko'nikma va malakalarni shakllantirish oddiy pedagogik usullarni ishlab chiqish va uni takomillashtirib borishdan iborat bo'lgan jarayondir.

**Xulosa va takliflar.** Demak, to'g'ri tashkil qilingan pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi va faoliyatini kuzatib boradi, ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tizimi

bilan bevosita tanishib boradi, o'qituvchi vazifasining boshlang'ich ko'nikmalarini (tajribali o'qituvchilar va amaliyotchi-talabalar tomonidan o'tkazilgan ochiq darslarga kirish, tahlil qilish, tarbiyaviy soat va tadbirlarni o'tkazish hamda ota-onalar bilan ishlash) egallaydi. Yuqorida keltirilgan pedagogik amaliyotni tashkil qilish va o'tkazishdagi yondashuvlar talabalarni pedagogik faoliyat uchun tajriba egallashlariga yordam beradi, kasbiy faoliyatida asos bshlib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni, 2019 yil 8 oktabr.
2. "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4623-son Qarori. 2020 yil 27 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992 yil, aprel, №4, 60-61 betlar.
4. Сластѣнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учебник для студ. высших пед. заведений /– М.: Издательский центр «Академия», 2011 – 380 с.
5. Xolboev S. Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tashkil topishi // Sharq. – 2003. – 128 bet.